

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ИНСТИТУТ ИБ. ФИЗИКА-МАТ.



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek	
"O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ ENERGETIKA TIZIMINING HUDUDIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	66
Xakimjanova Surayyo Xabibullayevna	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A.	
ИПАКЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИ UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Usmanov Sarvar Nigmatovich

Toshkent xalqaro ta'lim universiteti tadqiqotchisi

Email: ussarvar@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirishning ahamiyati va uning ta'lim tizimi samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli boshqaruv tizimlari orqali ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish, qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim muassasalarida shaffoflikni ta'minlash, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish hamda boshqaruv jarayonlarining monitoringi va nazoratini kuchaytirishga xizmat qilishi yoritiladi. Maqolada raqamlashtirishning tashkiliy, iqtisodiy va institutsional jihatlari hamda ularning oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'limni boshqarish tizimi, raqamli platformalar, OTMlar, ma'lumotlar bazasi, qaror qabul qilish jarayoni, raqamli transformatsiya, boshqaruv samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, institutsional rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируется значение цифровизации управленческой деятельности высших образовательных учреждений и её роль в повышении эффективности системы образования. Рассматриваются возможности автоматизации административных процессов, повышения скорости и точности принятия управленческих решений, а также рационального использования ресурсов посредством цифровых систем управления. Освещается влияние внедрения информационно-коммуникационных технологий на обеспечение прозрачности в образовательных учреждениях, снижение количества ошибок, связанных с человеческим фактором, а также усиление мониторинга и контроля управленческих процессов. В статье обоснованы организационные, экономические и институциональные аспекты цифровизации, а также их роль в повышении конкурентоспособности высших образовательных учреждений. Результаты исследования демонстрируют актуальность формирования современных механизмов управления в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: система управления образованием, цифровые платформы, высшие образовательные учреждения, базы данных, процесс принятия решений, цифровая трансформация, эффективность управления, инновационные технологии, институциональное развитие.

Abstract: This article analyzes the importance of digitalizing the management activities of higher education institutions and its role in improving the efficiency of the education system. It examines the opportunities provided by digital management systems for automating administrative processes, increasing the speed and accuracy of decision-making, and ensuring the efficient use of resources. The study highlights how the implementation of information and communication technologies contributes to greater transparency in higher education institutions, reduces errors caused by the human factor, and strengthens the monitoring and control of management processes. The organizational, economic, and institutional aspects of digitalization, as well as their role in enhancing the competitiveness of higher education institutions, are substantiated. The research findings demonstrate the relevance of developing modern management mechanisms under the conditions of digital transformation.

Keywords: education management system, digital platforms, higher education institutions (HEIs), databases, decision-making process, digital transformation, management efficiency, innovative technologies, institutional development.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablar qo'ymoqda, boshqaruv jarayonlarining tezkorligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash zaruratini kuchaytirmoqda. An'anaviy boshqaruv usullari hozirgi murakkab va dinamik muhitda oliy ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Shu bois boshqaruv faoliyatini raqamli asosda tashkil etish ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish, hujjatlar aylanishini soddalashtirish hamda inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Raqamlashtirish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq va ishonchli ma'lumotlarga tayanish, real vaqt rejimida monitoring va tahlil olib borish imkoniyatini yaratadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining ichki boshqaruv tizimini mustahkamlash bilan birga, ta'lim sifatini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuvini jadallashtirish va zamonaviy boshqaruv standartlariga moslashuvi aynan raqamli boshqaruv mexanizmlariga bog'liq. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali resurslardan oqilona foydalanish, strategik rejalashtirishni takomillashtirish va institutsional rivojlanishni ta'minlash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish masalasi so'nggi yillarda ta'lim menejmenti, raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlarida faol tadqiq etilayotgan ilmiy mavzulardan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, institutsional samaradorlikni oshirish hamda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlarini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham oliy ta'lim boshqaruvini raqamlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. **H. Zhao** raqamli platformalarni oliy ta'lim tizimining strategik rivojlanish omili sifatida baholab, ularning boshqaruv samaradorligi, ta'lim sifati va resurslardan foydalanish natijadorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqotda raqamli platformalar yordamida universitetlarda ma'lumotlarni markazlashtirish, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kommunikatsiyani yaxshilash mumkinligi ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, muallif axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik va texnik infratuzilma bilan bog'liq muammolarni ham alohida ko'rsatib o'tadi.

R. Wilson Nyemba, Charles Mbohwa va K. F. Carter oliy ta'lim muassasalari hamda texnologik parklar o'rtasidagi hamkorlikni tahlil qilib, universitet boshqaruvida innovatsion ekotizimlarni shakllantirish zarurligini asoslaydilar. Mualliflarning fikricha, raqamli boshqaruv tizimlari oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot va sanoat integratsiyasini kuchaytiradi, natijada universitetlar innovatsion rivojlanish markazlariga aylanadi. Ushbu yondashuv boshqaruv qarorlarini bozor ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Rossiyalik olimlar Yuriy Sergeevich Vasilyev, Violetta Nikolayevna Volkova va Vladimir Nikolayevich Kozlov zamonaviy innovatsion texnologiyalar sharoitida oliy ta'limni boshqarishda tizimli yondashuvning ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotida universitet boshqaruvi murakkab ochiq tizim sifatida tavsiflanib, axborot oqimlarini integratsiyalash, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish hamda barcha tarkibiy bo'linmalar faoliyatini yagona axborot maydonida muvofiqlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Mualliflar raqamli texnologiyalarni tizimli boshqaruv konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini raqamlashtirishning tashkiliy, texnologik va institutsional jihatlari keng yoritilgan. Biroq O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitida raqamli boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini kompleks baholash, ularning boshqaruv faoliyati natijadorligiga ta'sirini aniqlash hamda milliy amaliyotga mos raqamli boshqaruv modelini takomillashtirish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish masalasini tahlil qilishda tizimli va kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish usullari qo'llanildi. Milliy tajribani o'rganish orqali raqamli boshqaruv modellari baholandi. Adabiyotlar sharhida oliy ta'limni boshqarishda raqamli transformatsiya, elektron boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalar masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi universitet boshqaruv tizimlarini an'anaviy usullardan raqamli platformalarga o'tkazishni taqozo etmoqda. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish nafaqat ta'lim jarayonining sifati va shaffofligini oshiradi, balki talabalar hamda universitet xodimlari uchun qator muhim afzalliklarni yaratadi.



Avvalo, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarga e'tibor qaratish lozim. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimi orqali talabalar o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha ma'lumotlarga (dars jadvali, fan dasturlari, baholash natijalari, elektron reyting daftarchalari va akademik qarzdorlik holatlariga) yagona platforma orqali tez va oson kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa vaqt va resurslarni tejash, ortiqcha byurokratik jarayonlarning kamayishi hamda talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Onlayn murojaat va ariza topshirish tizimlari talabalarni dekanat yoki boshqa bo'limlarga qayta-qayta borish zaruratidan xalos etib, ta'lim jarayonida adolat va shaffoflikni ta'minlaydi.

Raqamli boshqaruv tizimlari talabalar bilan universitet o'rtasidagi kommunikatsiyani sezilarli darajada yaxshilaydi. Elektron pochta, mobil ilovalar va platformalar orqali e'lonlar, o'zgarishlar va topshiriqlar tezkor yetkaziladi. Natijada talabalar ta'lim jarayonidagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lib boradilar va o'quv jarayonidagi faollik darajasi oshadi¹.

Universitet xodimlari uchun ham boshqaruvni raqamlashtirish bir qator strategik afzalliklarni taqdim etadi. Ma'muriy va akademik xodimlar faoliyatida ish yuklamasi optimallashtiriladi. Hisobotlar, hujjatlar aylanishi, kadrlar bilan bog'liq jarayonlar va moliyaviy boshqaruv elektron tizimlar orqali avtomatlashtirilishi natijasida inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniqlik va tezkorlikni oshiradi.

Raqamli boshqaruv universitet rahbariyati uchun tahliliy imkoniyatlarni kengaytiradi. Statistik ma'lumotlar, monitoring va KPI ko'rsatkichlari asosida ta'lim sifati, professor-o'qituvchilar faoliyati hamda resurslardan foydalanish samaradorligini real vaqt rejimida baholash mumkin bo'ladi. Bu esa strategik rejalashtirish va rivojlanish dasturlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yo'nalish davlat siyosati darajasida mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, bir qator Prezident farmonlari va hukumat qarorlari bilan tartibga solinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 8-oktabr**dagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"**gi PF-5847-son² Farmoni** bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatda oliy ta'limni tubdan modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalarni tizimli joriy etish uchun muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiyada oliy ta'lim tizimini rivojlantirish aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Konsepsiyaga muvofiq, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari, avvalo, mamlakatni modernizatsiya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. Inson kapitalini mehnat bozori ehtiyojlari asosida rivojlantirish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini kengaytirish hamda kreativ, tizimli fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu jarayonda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim sohasining jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash alohida o'rin tutadi. Uzoq muddatli maqsadlardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish qator ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilash, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik usullarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish hamda yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish shular jumlasidandir. Boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish ushbu yo'nalishlarning barchasini yagona tizimda uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni raqamlashtirish, eng avvalo, ta'lim jarayonlari va boshqaruv mexanizmlarining shaffofligi hamda tezkorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Konsepsiyada "Elektron universitet" platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, hujjatlar aylanishini elektron shaklga o'tkazish, qog'ozbozlikni keskin qisqartirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni joriy etish vazifalari belgilangan. Bu esa rejalashtirish, monitoring va nazorat jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Masofaviy va aralash ta'lim shakllarini rivojlantirish, vebinarlar, onlayn darslar, "blended learning" va "flipped classroom" texnologiyalarini tatbiq etish orqali ta'lim jarayonlari individuallashtiriladi³. Bu holat nafaqat talabalar uchun qulaylik yaratadi, balki o'quv jarayonini boshqarish

1 Васильев Юрий Сергеевич, Волкова Виолетта Николаевна, & Козлов Владимир Николаевич (2020). Теория систем — основа высшего образования в условиях современных инновационных технологий. Системный анализ в проектировании и управлении, XXIV (1), 7-23.

2 <https://lex.uz/docs/-4545884>

3 Haoyu Zhao. (2024). Digital Platforms in Higher Education: Opportunities, Challenges, and Strategies. *Advances in Economics Management and*

va nazorat qilishni ham raqamli asosga ko'chiradi. Konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarida yagona elektron axborot bazalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Talabalar, professor-o'qituvchilar, magistrantlar va doktorantlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi **Student Record System**ni joriy etish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniqlik va ishonchlilikni ta'minlaydi. Ilmiy ishlar, dissertatsiyalar va konferensiya materiallarini o'z ichiga olgan elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish ilmiy faoliyatni boshqarish samaradorligini oshiradi hamda antiplagiat tizimlari orqali ilmiy halollikni ta'minlashga xizmat qiladi⁴. "Oliy ta'lim boshqaruvi axborot tizimi"ni ishga tushirish orqali oliy ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va davlat interaktiv xizmatlarini yagona platformada jamlash ko'zda tutilgan. Bu tizim orqali vakant lavozimlar bo'yicha tanlovlarni onlayn tashkil etish, arizalarni elektron qabul qilish va ularni shaffof baholash imkoniyati yaratiladi.

"O'zbekiston – 2030" taraqqiyot maqsadlariga muvofiq qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi oliy ta'lim tizimi boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur strategiya doirasida aholining barcha qatlamlari, xususan, talaba-yoshlar, professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qayta tashkil etishni talab etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish ma'lumotlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi. Elektron hujjat aylanishi, raqamli rejalashtirish va monitoring tizimlari orqali qarorlar tezkor, aniq va shaffof qabul qilinadi. Rektorat, dekanatlar va bo'limlar o'rtasidagi axborot almashinuvi yagona platforma orqali amalga oshirilishi boshqaruvdagi byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va inson omiliga bog'liq xatolarni qisqartiradi.

Strategiyada ko'zda tutilgan masofaviy, onlayn va virtual ta'lim texnologiyalarining rivoji oliy ta'lim boshqaruvida ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yagona masofaviy ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini rejalashtirish, professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, talabalar akademik natijalarini tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Bu esa ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligi o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Raqamli ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan bepul onlayn kurslar, dasturlashni o'rgatish tashabbuslari va "Bir million dasturchi" loyihasi oliy ta'lim muassasalari uchun yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega⁵. Natijada universitetlar nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki raqamli iqtisodiyot uchun innovatsion yechimlar ishlab chiquvchi markazga aylanadi. Bu holat boshqaruvda ham innovatsion yondashuvlarni joriy etishni jadallashtiradi. Davlat boshqaruvi bilan integratsiyalashgan holda raqamlashtirilgan oliy ta'lim muassasalari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, elektron reyting va KPI tizimlari orqali o'z faoliyatini samarali baholash imkoniga ega bo'ladi. Raqamli boshqaruv vositalari rahbar xodimlarning mas'uliyatini oshirib, ularni aniq natijalarga yo'naltiradi. Masofadan o'qitish va malaka oshirish platformalari boshqaruv kadrlarining doimiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son⁶ qarorida oliy ta'lim muassasalarining IT-industriya bilan integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali malakali kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan. Ushbu hujjat oliy ta'limni boshqarishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, ma'lumotlarga asoslangan, ochiq va samarali raqamli boshqaruv modellarini shakllantirishni taqozo etadi. Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida uzluksiz ta'limni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalari bilan umumta'lim maktablari, texnikumlar va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida raqamli platformalar asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi⁷. Oliy ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan integratsiyasi boshqaruv qarorlarini bozor ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Talabalar va professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli innovatsiyalarni joriy etish oliy ta'lim boshqaruvining yangi funksional vazifalariga aylanmoqda. Bu esa universitetlarni nafaqat ta'lim beruvchi, balki innovatsion rivojlanish markazlari sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish inson resurslarini boshqarish, moliyaviy rejalashtirish va ichki nazorat tizimlarini shaffoflashtiradi. Axborot tizimlari orqali o'qituvchilar malakasini

Political Sciences 116(1), pp.118-122.

4 Wilson R. Nyemba., Charles Mbohwa., K.F. Carter. (2021). Incubation and Technology Parks: Recent Trends, Research and Approaches. Bridging the Academia Industry Divide, pp:209-228.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>

6 <https://lex.uz/docs/-5032128>

7 PQ-4851-son 06.10.2020. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5032128>



oshirish, ularni rag'batlantirish va natijadorlikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ta'lim sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni raqamlashtirishdagi muammolar va cheklovlar⁸

Muammo yoki cheklov turi	Mazmuni va namoyon bo'lishi	Boshqaruv samaradorligiga ta'siri
Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurati	Ayrim oliy ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish, serverlar, kompyuter texnikasi va zamonaviy dasturiy ta'minot bilan ta'minlanish darajasini yanada oshirish raqamli boshqaruv tizimlarining to'liq va uzluksiz ishlashini ta'minlash imkonini beradi.	Boshqaruv jarayonlarini yanada tezlashtirish, elektron tizimlar barqarorligini mustahkamlash, ma'lumotlar bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda qaror qabul qilish sifatini yuksaltirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi.
Kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati	Professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarning raqamli platformalar, axborot tizimlari va elektron boshqaruv mexanizmlari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini izchil rivojlantirish raqamlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.	Raqamli tizimlardan yanada kengroq foydalanish, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish va raqamlashtirishdan kutilayotgan natijalarni to'liqroq namoyon etish imkoniyati kengayadi.
Boshqaruv madaniyatini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish	Ayrim rahbar va xodimlarda an'anaviy boshqaruv usullarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish hamda innovatsiyalarga moslashish jarayonini yanada faollashtirish imkoniyatlari mavjud.	Raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanadi, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish kengayadi va islohotlarning amaliy samaradorligi ortadi.
Moliyaviy resurslarni kengaytirish imkoniyatlari	Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va ularni doimiy yangilab borish qo'shimcha moliyaviy resurslarni talab qiladi. Ayrim OTMlarda ushbu yo'nalishda investitsiya imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.	Raqamlashtirish jarayonlarini izchil jadallashtirish, texnologik yangilanishlarni muntazam amalga oshirish va tizimlarning zamonaviyligini ta'minlash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratiladi.
Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoyalash tizimini takomillashtirish	Elektron boshqaruv tizimlarida katta hajmdagi shaxsiy va xizmat ma'lumotlari jamlanadi. Kiberxavfsizlik choralari muntazam kuchaytirish ma'lumotlarning ishonchli himoyasini ta'minlash imkonini beradi.	Axborotga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanadi, boshqaruv tizimlarining barqarorligi kuchayadi va universitet imijini yanada yuksaltirish uchun qulay sharoit yaratiladi.
Axborot tizimlarini integratsiyalashni kengaytirish zarurati	Turli bo'limlarda joriy etilgan axborot tizimlarini yagona platformaga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ma'lumotlar almashinuvini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi oshadi, takroriy ishlar qisqaradi hamda boshqaruv samaradorligi yanada yuksaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali oliy ta'lim muassasalarida ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish, hujjatlar aylanishini soddalashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniqlikni oshirish imkoniyatlari kengayadi. Yagona elektron platformalar asosida talabalarning akademik faoliyati, professor-o'qituvchilarning ish samaradorligi hamda moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash, shaffoflikni ta'minlash va korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar mazkur jarayonning institutsional asoslarini mustahkamlab, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratmoqda. "Elektron universitet", masofaviy va aralash ta'lim shakllari, raqamli boshqaruv platformalari hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlari ta'lim tizimining yangi rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlamoqda.

Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, kadrlarning raqamli kompetensiyalarini izchil oshirish,



moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish hamda axborot xavfsizligini muntazam takomillashtirish raqamlashtirish jarayonining samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlarni izchil rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalarida raqamli ko'nikmalarni mustahkamlash, yagona integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish va kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish imkoniyatlari kengayadi.

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, institutsional rivojlanishni ta'minlash va xalqaro ta'lim makoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020-yildagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5032128>
4. Zhao, H. (2024). Digital Platforms in Higher Education: Opportunities, Challenges, and Strategies. *Advances in Economics Management and Political Sciences* 116(1), pp:118-122.
5. Wilson R. Nyemba., Charles Mbohwa., K.F. Carter. (2021). Incubation and Technology Parks: Recent Trends, Research and Approaches. *Bridging the Academia Industry Divide*, pp:209-228.
6. Васильев Юрий Сергеевич, Волкова Виолетта Николаевна, & Козлов Владимир Николаевич (2020). Теория систем — основа высшего образования в условиях современных инновационных технологий. *Системный анализ в проектировании и управлении*, XXIV (1), 7-23.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100